

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE “SPIRAL OF SILENCE” THEORY IN DEVELOPING REFLECTIVE COMMUNICATION AND CREATIVITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Texron Furkat ogli Murodov
Deputy Director for Academic and Educational Affairs, Children’s Music and Arts School No. 3, Samarkand

ABSTRACT

This article provides a scientific analysis of the pedagogical significance of the “Spiral of Silence” theory, developed by German researcher Elizabet Noelle-Neumann, in fostering reflective communication and creative thinking within educational institutions. The study substantiates innovative management mechanisms aimed at strengthening free exchange of ideas, psychological safety, and reflective collaboration in the pedagogical environment. Particular attention is given to the potential of communicative openness as a factor in enhancing learners’ and teachers’ creative competencies.

Keywords: spiral of silence, reflective communication, creativity, educational management, psychological safety, communicative competence.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТЕОРИИ «СПИРАЛИ МОЛЧАНИЯ» В РАЗВИТИИ РЕФЛЕКСИВНОГО ОБЩЕНИЯ И КРЕАТИВНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Техрон Фуркат угли Муродов
Заместитель директора по учебно-воспитательной работе Детской школы музыки и искусства № 3 города Самарканда

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно анализируется педагогическое значение теории «спирали молчания», разработанной немецким исследователем Элизабет Ноэль-Нойман, в развитии рефлексивного общения и креативного мышления в образовательных учреждениях. В исследовании обоснованы инновационные управленческие механизмы, направленные на усиление свободного обмена мнениями, формирование психологически безопасной среды и развитие рефлексивного сотрудничества в педагогическом процессе. Особое внимание уделяется роли коммуникативной открытости как фактора повышения креативных компетенций участников образовательного процесса.

Ключевые слова: спираль молчания, рефлексивное общение, креативность, образовательный менеджмент, психологическая безопасность, коммуникативная компетентность.

“SUKUT SPIRALI” NAZARIYASINING TA’LIM MUASSASALARIDA REFLEKSIV MULOQOT VA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Texron Furkat o‘g‘li Murodov

**Samarqand shahar 3-son bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quv-ma’rifiy
ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nemis tadqiqotchisi Elizabet Noelle-Neumann tomonidan asos solingan “sukut spirali” nazariyasining ta’lim muassasalarida refleksiv muloqot va kreativ tafakkurni rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik muhitda erkin fikr almashinuvi, psixologik xavfsizlik va refleksiv hamkorlik jarayonlarini kuchaytirishga xizmat qiluvchi innovatsion boshqaruv mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sukut spirali, refleksiv muloqot, kreativlik, pedagogik menejment, psixologik xavfsizlik, kommunikativ kompetensiya.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligi pedagogik jamoada shakllangan kommunikativ madaniyat va refleksiv hamkorlik darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. Ta’lim subyektlari o‘rtasidagi ochiq muloqot kreativ fikrlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi [4]. Biroq amaliyotda ayrim shaxslarning o‘z fikrini oshkora ifoda etishdan tiyilishi natijasida kommunikativ passivlik yuzaga keladi.

Mazkur holat kommunikativ psixologiyada “sukut spirali” fenomeni bilan izohlanadi [2]. Ushbu nazariya ta’lim muhitida refleksiv tafakkur va kreativ g‘oyalar shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni tushuntirish imkonini beradi.

Ta’lim boshqaruvini modernizatsiya qilishga qaratilgan normativ hujjatlarda ham kommunikativ hamkorlikni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-51-son Farmonida ta’lim tizimida samarali boshqaruv va tashabbuskorlikni kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan [8]. Shu boisdan jamoa a’zolari o‘rtasida ijobiy

kommunikatsiyani rivojlantirish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda refleksiya va kreativlik tushunchalari rahbarlik faoliyati hamda jamoaviy ish samaradorligini belgilovchi fundamental omillar sifatida keng talqin qilinadi. J.Dewey refleksiyani shaxsning o'z tajribasini ongli ravishda qayta ko'rib chiqish jarayoni sifatida izohlab, uni ta'lim va boshqaruvda qarorlar sifatini oshiruvchi muhim mexanizm deb baholagan [9:57]. D.Schön esa refleksiya tushunchasini professional faoliyat bilan bog'lab, uni mutaxassisning real vaziyatlarni tahlil qilish va shu asosda moslashuvchan qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida ta'riflaydi [10:102].


Neumann fikriga ko'ra, "Sukut spirali" individlar ijtimoiy izolyatsiyadan qo'rquv tufayli o'z fikrlarini jamoada hukmron qarashlarga moslashtirishga moyil bo'ladi, natijada muqobil fikrlar ifodalanmay qoladi [2]. Bu esa o'z navbatida shaxslarda ijobiy refleksiya ko'nikmasining rivojlanishida to'siq bo'lishi yoki salbiy refleksiya shakllanishida zamin yaratishi mumkin. Pedagogik tadqiqotlarda bunday holat o'qituvchi va o'quvchilarning kommunikativ faolligini pasaytirishi qayd etilgan [1; 3].

Refleksiv muloqot shaxsning metakognitiv faoliyatini rivojlantiruvchi muhim omil bo'lib, ochiq kommunikativ muhit kreativ tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi [3]. Xalqaro tadqiqotlar, jumladan UNESCO hisobotlarida ham qo'llab-quvvatlovchi maktab muhiti o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim determinant sifatida ko'rsatilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni qiyosiy va tizimli tahlil qilish, pedagogik jarayonlarni konseptual modellash, mantiqiy umumlashtirish hamda interpretativ tahlil metodlaridan foydalanildi.

Mazkur metodlar "sukut spirali" fenomenining pedagogik muhitdagi namoyon bo'lish mexanizmlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan model ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijasida ta'lim muassasalarida refleksiv muloqot va kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi pedagogik mexanizm ishlab chiqildi (1-rasm):



1-rasm. “Sukut spirali”ning komponentlari.

Bunda,

1) **Anonim fikr bildirish platformalari** – muqobil fikrlarni aniqlash va kommunikativ to‘siqlarni kamaytirish [5].

Ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida anonim kommunikativ vositalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Google Forms, Telegram botlar va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali anonim so‘rovnomalar tashkil etilishi, shuningdek, innovatsion yondashuv asosida yaratilgan “fikr qutilari” (ijobiy va salbiy baholash tugmalari mavjud sensorli qurilmalar)ni umumiy foydalanish hududlariga o‘rnatish tavsiya etiladi. Mazkur qurilmalar orqali kunlik monitoring olib borilib, olingan natijalar muntazam tahlil qilinadi. Ushbu mexanizm o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning yashirin qarashlarini aniqlash hamda kommunikativ muammolarni erta bosqichda belgilash imkonini beradi.

2) **Psixologik xavfsizlik muhitini yaratish** – erkin fikr bildirish uchun ishonchli atmosfera shakllantirish [6; 7].

Pedagogik jamoada shaxsning fikrini erkin bayon etishi uchun motivatsion va institutsional sharoitlar yaratish zarur. Masalan, “Yashil chiroq” tamoyiliga asoslangan dasturlar orqali pedagoglar va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlari jazolanmasligi kafolatlangan psixologik muhit shakllantiriladi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalariga malakali psixologlarni jalb etish orqali o‘quvchilar uchun

maxsus treninglar tashkil etish, ulardagi psixologik to‘siqlarni kamaytirish hamda o‘z fikrini erkin ifoda etish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

3) **Refleksiv dialog maydonlari** – pedagogik refleksiya va g‘oyalar almashinuvi uchun sharoit yaratish [4].

Ta’lim muassasalarida “Eshitamiz va hal qilamiz” tamoyiliga asoslangan ochiq muloqot formatlarini joriy etish tavsiya etiladi. Jumladan, har oy yakunida “erkin minbar” shaklidagi pedagogik kengashlar tashkil etish, pedagogik kengash vakolatlarini kengaytirish hamda kollegial boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish muhimdir. Pedagogik kengash qarorlarining ta’lim muassasasi rahbariyati uchun majburiy ijro maqomiga ega bo‘lishi refleksiv boshqaruv samaradorligini oshiradi.

4) **Kreativ tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash tizimi** – innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish [4; 5].

Rahbar, pedagog va o‘quvchilar o‘rtasida ishonchli kommunikativ kanallarni shakllantirish kreativ tashabbuslarni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bunda har bir boshqaruv darajasida maslahat beruvchi mas’ul shaxslar (rahbar, rahbar o‘rinbosari, sinf rahbari, psixolog) faoliyatini tizimlashtirish, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot formatlarini (rahbar–o‘qituvchi, rahbar–o‘quvchi) rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, o‘quvchilar va pedagoglarning liderlik salohiyatini namoyon etish maqsadida “Bir kunlik rahbar” kabi amaliy boshqaruv tajribalarini joriy etish innovatsion faollikni rag‘batlantiradi.

Muhokama. “Sukut spirali” fenomeni pedagogik muhitda kommunikativ passivlikni kuchaytirib, refleksiv tafakkur rivojlanishini cheklashi mumkin [1; 2]. Shu sababli ta’lim menejmentida psixologik xavfsizlik va kommunikativ demokratiya tamoyillarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. “Sukut spirali” nazariyasining ta’lim tizimiga tatbiqi refleksiv muloqot va kreativlikni rivojlantirishning samarali ilmiy asosini yaratadi. Taklif etilgan pedagogik mexanizm quyidagilardan iboratdir:

- erkin fikr almashinuvi madaniyatini shakllantiradi;
- refleksiv kompetensiyalarni rivojlantiradi;
- kreativ faoliyatni rag‘batlantiradi;

- ta'lim muassasasining innovatsion salohiyatini oshiradi.

Kelgusida mazkur model samaradorligini empirik tadqiqotlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir [2; 6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov B., Sobirov J. Ta'lim tizimida nizolar va ularni boshqarish asoslari. Toshkent, 2021.
2. Noelle-Neumann E. The Spiral of Silence: Public Opinion – Our Social Skin. Chicago, 1984.
3. Turova S.A. Kommunikativ psixologiya asoslari. Moskva, 2016.
4. Ergashev N.Sh. Pedagogik boshqaruvda zamonaviy yondashuvlar. Samarqand, 2020.
5. Fayziyev Z. Maktabda psixologik muhitni optimallashtirish metodlari. Pedagogik izlanishlar, 2023.
6. UNESCO. Creating a Safe and Supportive School Environment. Paris, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasi XTV. Maktab tizimida ijtimoiy-psixologik xizmat yo'riqnomasi. Toshkent, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-51-son Farmoni, 2025-yil 19-mart.
9. Dewey J. How We Think. Boston: D.C. Heath & Co., 1933.
10. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.